



TAVTOLOGIYA VA PLEONAZMLARNING PRAGMATIK NUQTAYI NAZARDAN TIL BIRLIKLARI SIFATIDAGI TALQINI

Shaimkulova Nafisa

Qarshi davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda tautologiya va pleonazmlarning pragmatik nuqtayi nazardan til birliklari sifatidagi talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu birliklarning nutq jarayonidagi kommunikativ-pragmatik vazifalari, ekspressivlikni yuzaga chiqarishdagi oʻrni hamda tinglovchi va oʻquvchiga taʼsir koʻrsatish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, tautologiya va pleonazmlarning badiiy hamda soʻzlashuv nutqida qoʻllanish holatlari semantik va uslubiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida mazkur birliklarning nafaqat ortiqcha takror shakli, balki muayyan kommunikativ maqsadni amalga oshiruvchi pragmatik vosita sifatida xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit soʻzlar: tautologiya, pleonazm, pragmatika, pragmalingsvistika, til birliklari.

“Tautologiya” (yunoncha *tautología* bir xil narsani qayta aytish”) va “pleonazm” (yunoncha *pleonasmós*—“ortiqcha boʻlish”) atamalari avval antik ritorika anʼanalarida shakllangan boʻlib, dastlab asosan uslubiy nuqson sifatida talqin qilingan. Keyinchalik bu hodisalar stilistikadan tashqari, mantiq, semantika va pragmatika doirasida ham tadqiq etila boshladi. Mantiqiy anʼanada tautologiya har qanday qiymatda haqiqat boʻluvchi formulani (“A yoki A emas” tipidagi tuzilmalar) bildirsa, lingvistik yondashuvda u bir xabar tarkibida maʼnoning takror ifodalanishi bilan izohlanadi.

Zamonaviy lingvistika lugʻatlarida pleonazm odatda “keragidan ortiq soʻzlarning qoʻllanishi, maʼnoni takrorlovchi yoki ortiqcha boʻlaklar bilan ifodalash” tarzida taʼriflanadi; bunda u koʻpincha stilistik xato sifatida baholansa-da, ayrim hollarda urgʻu berish, aniqlik kiritish yoki ritorik taʼsir kuchaytirish vositasi sifatida ham legitim vosita deb qaraladi.

Tautologiya va pleonazmga bagʻishlangan maxsus tadqiqotlarda bu hodisalarning tasnifi va chegaralariga turlicha yondashuvlar kuzatiladi. O.A. Zayts “Семантика и прагматика тавтологий и плеоназмов” nomli ishida tautologiya va pleonazmni semantik ortiqcha birliklar tizimi sifatida koʻrib, ularni oddiy takrordan farqlovchi mezonlarni ishlab chiqadi va bu hodisalarni kommunikativ strategiya bilan bogʻlaydi.

L. Paraxonkova, T.A. Kovalyova tadqiqotlarida esa pleonazm polisistemali hodisa sifatida, yaʼni til tizimi, matn va diskurs darajasida turlicha namoyon boʻluvchi ortiqcha konstruktsiya sifatida talqin qilinadi; ular rus tili



materiali asosida tautologiya va pleonazmning semantik va funksional turlarini ajratib, bu birliklarning tarixiy va uslubiy dinamikasini ko'rsatadilar.

Xalqaro maqolalarda ham terminlar o'rtasidagi nisbat turlicha belgilanadi. Masalan, S.A.A. Eltaif (2025) tadqiqotida pleonazm nutqda ortiqcha va takroriy ifodalar uchun umumiy kategoriya, tautologiya esa shu kategoriya doirasida bir xil yoki juda yaqin ma'noni boshqa so'zlar bilan takrorlovchi xususiy tur sifatida talqin qilinadi, holbuki bir qator zamonaviy manbalarda bu ikki termin o'rtasida qat'iy farq qo'yilmay, ko'pincha sinonim sifatida qo'llanishi ta'kidlanadi. Bu xilma-xillik bizni tadqiqotimiz doirasida aniq ishchi ta'riflarni belgilash zaruratini tug'dirdi.

O'zbek tilshunosligida "pleonazm" masalasi N. Mahkamov, S. Karimov, D. Sobirova va boshqa olimlar ishlarida, asosan, adabiy norma, grammatik stilistika, so'zlashuv va publitsistik nutqdagi ortiqcha birliklar kontekstida yoritilgan; tilshunoslik nazariyasi va stilistikaga oid darslik va ma'ruzalar matnida pleonazm ko'pincha "ortiqcha so'z yoki grammatik shakl" sifatida talqin qilinadi, ammo pragmatik funksiyasi alohida sistematik tadqiqot mavzusi sifatida yetarli darajada ochildmagan.

Tautologiya atamasi esa ko'proq mantiqiy tushuncha bilan bog'liq yoki oddiy "takror" ma'nosida ishlatilishi tufayli, "leksik takror", "stilistik takror" va "tautologiya" o'rtasidagi farqlar ko'p hollarda qat'iy ajratilmaydi. Shu boisdan mazkur tadqiqotimiz doirasida ishchi ta'riflar quyidagicha belgilandi:

Tautologiya – bir nutq bo'lagida yoki butun gap doirasida bir xil yoki juda yaqin ma'nodagi elementlarning takror ifodalanishiga asoslangan, mazmunan ortiqcha bo'lsa-da, pragmatik jihatdan motivlangan bo'lishi mumkin bo'lgan leksik-sintaktik konstruktsiya.

Pleonazm – xabar tarkibida mazmuniy jihatdan allaqachon ifodalangan komponentni yana qo'shimcha til birligi orqali ortiqcha takrorlash natijasida yuzaga keladigan konstruktsiya bo'lib, u nutq me'yoriga zid ortiqchalik sifatida ham, ma'lum sharoitda ekspressivlik va aniqlik beruvchi uslubiy vosita sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin.

Har qanday takror tautologiya emas. Matn lingvistikasi va stilistika tadqiqotlarida "takror" (povtor) matn bog'lanishining muhim vositasi sifatida, leksik va grammatik birliklar qayta ishlatilishi orqali tema–rema, bog'lovchilik, ritm va kompozitsiyani ta'minlovchi vosita sifatida izohlanadi.

Tautologiya esa tarkibiy takrorning mazmuniy ortiqchalik bilan birlashgan ko'rinishi bo'lib, u holda takror elementi yangi referent yoki yangi mazmuniy bo'lak kiritmaydi, balki allaqachon ma'lum bo'lgan mazmunni yana bir bor "aytib qo'yadi". O. Zayts, L. Paraxonkova va boshqa mualliflar aynan shu belgi – "yangi mazmunning yo'qligi"ni tautologiyani oddiy leksik takrordan ajratadigan asosiy mezonlardan biri sifatida ko'rsatadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Crystal D.A Dictionary of Linguistics and Phonetics. 6 thed. –Oxford; Malden, MA: Black well Publishing,2008.
2. Levinson S.C. Pragmatics. –Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
4. Ковалева Т.А. Тавтология и плеоназм в отечественном языкознании: интегральный и дифференциальный аспекты // Вестник МГОУ. Серия: Русская филология. – 2016. – №2. – С.
5. Eltaif S.A.A.-R. The Role of Pleonasms and Tautology in the Text // Journal of Tikrit University for Humanities.
6. Sobirova D. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
7. Зайц О. А. Семантика и прагматика тавтологий и плеоназмов: дис. ... канд. филол. наук. – СПб., 2001.